

49. O'rtasida 0 raqami bor sonlarni bo'lish

Yondosh mavzu:
lingvistik (tilshunoslikka oid)
kasblar.

Bo'linuvchi, bo'luvchi, to'liqsiz
bo'linma, qoldiq.



1. Misollarni yeching. Javoblarni o'sish tartibida joylashtiring.
Tillar va ularning xilma-xilligini o'rganish bilan bog'liq kasb nima
deb ataladi?

I $804 : 4$

L $412 : 4$

Y $550 : 5$

Ng $872 : 8$

I $749 : 7$

T $608 : 2$

S $909 : 3$

T $936 : 3$



2. Ifoda tuzing. Sonni bo'lishga qulay sonlar yig'indisiga yoyib
hisoblang.
Tarjimon bir kunda 4 sahifa matnni tarjima qilishi mumkin.
416 sahifani tarjima qilishga necha kun ketadi?



3. Madina bo'lishni qanday bajarganini ko'rib chiqing. Nimani sezdingiz?
Madina bu yechimni qanday qisqartirishi mumkin?



416 = 4 yuzl., 1 o'nl.,
6 birl.

a) Yuzliklarni bo'lamiz
 $4 \text{ yuzl.} : 4 = 1 \text{ yuzl.}$
(qoldiq 0).

b) O'nliklarni bo'lamiz
 $1 \text{ o'nl.} : 4 = 0 \text{ o'nl.}$
(qoldiq 4).

d) Qolgan o'nliklarni birliklarga
aylantirib, ularni birliklarga
(birlarga?) qo'shamiz.
 $(1 \text{ o'nl.} + 6 \text{ birl.}) : 4 =$
 $16 \text{ birl.} : 4 = 4 \text{ birl.}$

	4	1	6	4			
-	4			1	0	4	
-	0	1					
		0					
-		1	6				
-		1	6				
			0				

49. O'rtasida 0 raqami bor sonlarni bo'lish



Raqamni pastga tushirganda to'liqsiz bo'linuvchini hali ham bo'linuvchiga bo'lishning imkoni bo'lmayotgan bo'lsa:

- a) bo'linmaga 0 raqamini qo'shib qo'yish kerak;
- b) bo'linuvchining yana bitta raqamini pastga tushirish kerak.

Bo'linuvchining raqamini faqat quyidagi holatlarda pastga tushirish mumkin:

- a) shu xonadagi sonni bo'lgandan keyingi qoldiq topilgandan keyin;
- b) to'liqsiz bo'linmaga 0 raqamini qo'shib yozgandan keyin.

	9	0	2	7	3				
-	9				3	0	0	9	
		0	2	7					
-			2	7					
				0					

4. Bo'lishni bajaring.

$$4\ 072 : 4$$

$$2\ 763 : 9$$

$$16\ 206 : 6$$

$$10\ 075 : 5$$

$$240\ 288 : 8$$

$$282\ 828 : 7$$

5. Bosma qog'ozlarning ma'lum o'lchami bo'ladi. Masalan, A4 varaqning o'lchami 210 mm x 297 mm bo'ladi.

- a) A3 varaq – uzun tomoni bilan birlashtirilgan ikkita A4 qog'ozga teng bo'ladi. A3 varaqning o'lchamlari qanday bo'ladi?
- b) A2 varaq – uzun tomoni bilan birlashtirilgan ikkita A3 qog'ozga teng bo'ladi. A2 varaqning o'lchamlari qanday bo'ladi?
- d) Shu qoidadan foydalanib, A0 varaqning o'lchamlarini toping.

6. A4 qog'ozning uzun tomonini teng ikkiga buklasak, A5 qog'oz hosil bo'ladi. A5 qog'ozning o'lchami qanday?

7. Santimetrdan yozing:

$$13\ \text{dm}\ 4\ \text{cm}$$

$$2\ \text{m}\ 7\ \text{dm}\ 6\ \text{cm}$$

$$5\ \text{dm}\ 8\ \text{cm}\ 40\ \text{mm}$$

$$2\ \text{m}\ 12\ \text{dm}\ 35\ \text{cm}$$

49. O'rtasida 0 raqami bor sonlarni bo'lish



8. Harf teruvchi 47 bet matn yozdi. 1800 ta belgi (harf, belgi va bo'shliq) bir bet hisoblansa, hammasi bo'lib nechta belgi yozilgan? Harf teruvchi bir kunda 10 bet matn yoza olsa, bu matnni yozishiga necha kun ketgan?



9. Hisoblang.






$$9 \text{ m} + 3 \text{ m } 2 \text{ dm} - (4 \text{ m } 57 \text{ cm} + 34 \text{ dm } 3 \text{ cm})$$

$$6 \text{ m} \cdot 4 + (8 \text{ m } 2 \text{ dm} - 3 \text{ m } 9 \text{ dm}) \cdot 2$$

$$1 \text{ m } 5 \text{ cm} : 3 + (1 \text{ m} - 45 \text{ cm}) : 5$$



10. Qaysi shaklning maydoni kattaroq?



11. Bo'lishni bajaring.

$$5105 : 5$$

$$81081 : 9$$

$$302008 : 4$$

$$3606 : 6$$

$$13002 : 3$$

$$500072 : 8$$



12. A6 qog'ozning bo'yi 148 mm, eni 105 mm. Daftarda shunday to'g'ri to'rtburchak yasab, uning perimetri va yuzini hisoblang.